

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.T.08.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

QURBONOV RO‘ZIMBOY TOXIROVICH

IKKI QAVATLI ARQOQLI TRIKOTAJ TO‘QIMALAR OLISH
TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

05.06.02 – To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga dastlabki
ishlov berish

TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYA AVTOREFERATI

Toshkent-2025

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferatining
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
technical sciences**

Qurbonov Ro‘zimboy Toxirovich

Ikki qavatli arqoqli trikotaj to‘qimalar olish texnologiyasini
takomillashtirish.....3

Курбонов Рузимбой Тохилович

Совершенствование технологии получения трикотажа двойного
точного переплетения.....27

Qurbonov Ro‘zimboy Toxirovich

Improving the technology for producing double-layered weft
knitted fabrics.....51

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works.....55

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.T.08.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

QURBONOV RO‘ZIMBOY TOXIROVICH

**“IKKI QAVATLI ARQOQLI TRIKOTAJ TO‘QIMALAR OLISH
TEKNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH”.**

**05.06.02 – To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga dastlabki
ishlov berish**

TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYA AVTOREFERATI

Toshkent-2025

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/T5699 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya "Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutida" bajarilgan Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz, (rezyume)) Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.ttyasi.uz) va «Ziynet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Mirusmanov Baxtiyar
texnika fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Avazov Komiljon Rahmatovich
texnika fanlari doktori, professor

Usmonqulov Sharofjon Qodirqulovich
texnika fanlari falsafa doktori

Yetakchi tashkilot:

Jizzax politexnika instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.T.08.01 raqamli ilmiy kengashning 16 dekabr 2025 y. soat 11⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Mazil: 100100, Toshkent sh., Shohjaxon-5, tel. (+99871) 253-06-06, 253-08-08, faks 253-36-17; e-mail: titlp_info@edu.uz, Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti ma'muriy binosi, 222-xona).

Dissertatsiyasi bilan Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (255 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzili: 100100, Toshkent sh., Shohjaxon-5, tel. (+99871) 253-06-06, 253-08-08.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «02» dekabr kuni tarqatildi
(2025 yil «02» dekabr 255 - raqamli reyestr bayonnomasi).



X.X. Kamilova
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
t.f.d., professor



A.Z. Mamatov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
t.f.d., professor



SH. SH. Hakimov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (Phd) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahonda eng ko‘p trikotaj mahsulotlari assortimentini hajmi 25 %ga ortishi kutilmoqda, bu mahsulotlarga bo‘lgan talabni yildan-yilga oshib borishidan dalolat beradi. Eng ko‘p trikotaj mahsulotlari ishlab chiqaruvchi davlatlar qatoriga AQSh, Xitoy, Hindiston, Yaponiya, Indoneziya kabi davlatlar kiradi. Dunyo miqyosida to‘qimachilik bozori hajmi 2024 yilda 1,840 trillion dollarni tashkil etdi. 2025 yilda bu ko‘rsatkich 1,976 trillion dollarga, Shu jihatdan, to‘qimachilik sanoatida tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirish, trikotaj mahsulotlarining yangi assortimentini, xususan trikotaj mahsulotlarini olishning yangi texnologiyalarini ishlab chiqish va uni amaliyotga tatbiq etish, hamda tabiiy va sun‘iy xomashyodan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Jahonda trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarishda tabiiy xomashyolardan oqilona foydalanish, paxta va PAN chegarasini kengayirish, trikotaj to‘qimalarining yangi assortimentlarini ishlab chiqishda yangi texnika va texnologiyalarni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu yo‘nalishda jumladan, ikki qavatli arqoqli trikotaj to‘qimalar olish texnologiyasini takomillashtirish ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Bu borada trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarishning ilmiy asoslarini rivojlantirish, yangi tuzilishli paxta va PAN iplaridan trikotaj to‘qimalarini ishlab chiqish, trikotaj tarkibidagi iplari miqdorini uning texnologik ko‘rsatkichlari va fizik-mexanik xususiyatlariga ta’sir etish bog‘likliklari ishlab chiqish, xomashyo sarfini kamaytirishni texnologik yechimlarini tavsiya etish va nazariy jihatdan asoslash, xomashyo sarfi kam, yuqori sifat ko‘rsatkichlariga ega bo‘lgan ikki qavatli arqoqli trikotaj to‘qimalarining yangi assortimentini olish texnologiyasini ishlab chiqish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirish, soha korxonalarining investitsiya va eksport faoliyatini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda va muayyan natijalarga erishilmoqda. 2023-2030 yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha “O‘zbekiston-2030” strategiyasida, jumladan, “Mahalliy xomashyo bazasidan samarali foydalanish va ilg‘or texnologiyalarga asoslangan sanoatni rivojlantirish”¹ kabi muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, jumladan, to‘qimachilik sektorida mahalliy xomashyo asosida aholining turli iste’molchi qatlamlariga yuqori samara beruvchi paxta va pan iplaridan trikotaj mahsulotlarini olish texnologiyasini takomillashtirish va ishlab chiqarishni mahalliyashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-maydagi PF-5989-son «To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini qo‘llab-quvvatlashga doir kechiktirib bo‘lmaydigan chora-tadbirlar to‘g‘risida» gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi,

¹ 2023-2030 yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha “O‘zbekiston-2030” strategiyasida, jumladan, “Mahalliy xomashyo bazasidan samarali foydalanish va ilg‘or texnologiyalarga asoslangan sanoatni rivojlantirish”

2024-yil 1-maydagi PF-71-son «To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida» gi, 2025-yil 16-yanvardagi PF-6-son “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida qayta ishlash zanjirini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi Farmonlari; hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi bo‘yicha tadqiqotlar Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning II.«Energetika, energiya va resurstejamkorlik» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Bugungi kunda xorij olimlari trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish, trikotaj to‘qimalarini tuzilishi, deformatsion xossalarini tadqiq qilish, trikotaj mahsulotlari olish texnologiyasini takomillashtirish, homashyo sarfini kamaytirish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borishgan. Bular A.S. Dalidovich, Ye.P. Pospelov, I.I. Shalov, L.A. Kudryavin, L.V. Shkunova V.M. Lazarenko, N.A. Grechuxina, V.A. Zinoveva, L.P. Rovinskaya, I.G. Sitovich, V.A. Zavaruev, A.V. Truevsev, V.Kumar, V.R Sampath, N. Emirhanova, Y. Kavusturan, E. Onofrei, S.A. Frydrych va boshqalar. Trikotaj to‘qimalari va mahsulotlari assortimentini kengaytirish, ularning texnologik ko‘rsatkichlarini va fizik-mexanik xossalarini tadqiq etish bo‘yicha,

Mamlakatimizda X.A. Alimova, M.M. Muqimov, N.R. Xanxadjayeva, A.Y. Rahimov, B. Mirusmanov, Q.M. Xoliqov, F.A. Abdurahimova, K.Z. Yunusov, N.N. Nabijanova, M.N. Umarova, X.A. Xazratqulov, M.M. Musaeva, G.X. Gulyaeva, T.K. Allamuratova, N.M. Musaevlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Ilmiy tadqiqotlar natijasida trikotaj to‘qimalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish va ishlab chiqarish korxonalari amaliyotida qo‘llash masalalarini yechishda salmoqli natijalarga erishilgan. Lekin shunga qaramasdan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarida yassi ikki ignadonli zamonaviy trikotaj to‘quv mashinasida ikki qavatli arqoqli trikotaj to‘qimalar olish texnologiyasini takomillashtirish bo‘yicha tadqiqoti va tahliliga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlar aniq natijalar asosida o‘rganilmaganligi dissertatsiya ishini maqsad va vazifalarini aniqlab berdi.

Tadqiqotning maqsadi: yassi ikki ignadonli zamonaviy trikotaj to‘quv mashinasidan foydalanib, uning konstruktiv tizimiga hech qanday o‘zgartirish kiritmasda ikki qavatli arqoqli trikotaj to‘qimalarini olish texnologiyasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

yassi ignadonli trikotaj mashinalarining texnologik imkoniyatlaridan foydalanib, ikki qavatli arqoqli trikotaj to‘qimasini ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish;

ikki qavatli arqoqli trikotaj to‘qimalari tarkibidagi arqoq ipini chiziqliy zichligi, to‘qimani texnologik ko‘rsatkichlariga va fizik-mexanik xossalariga bog‘liqlik omillarini ilmiy asoslash;

ikki qavatli arqoqli trikotaj to'qimalari tarkibidagi arqoq iplarini to'qimada mahkamlanganlik darajasini ilmiy asoslash;

ikki qavatli arqoqli trikotaj to'qimalari tarkibidagi arqoq ipini to'qima asosida mustahkam mahkamlanganligiga ta'sir etish omillarini asoslash;

Tadqiqotning ob'ekti sifatida ikki ignadonli yassi fang trikotaj to'quv mashinasi.

Tadqiqotning predmeti sifatida ikki qavatli arqoqli trikotaj to'qima variantlari va homashyo turlari.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida trikotaj texnologiyasi, to'qimachilik materialshunosligi, nazariy, matematik qayta ishlash va statistik tahlil qilish, kompyuter dasturiy ta'minoti hamda me'yoriy hujjatlarda belgilangan usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ikki qavatli arqoqli trikotaj to'qimalarini yassi ignadonli trikotaj mashinalarining texnologik imkoniyatlaridan foydalangan holda trikotaj to'qimasini olishning takomillashgan texnologiyasi ishlab chiqilgan;

ikki qavatli sifat ko'rsatkichlari yuqori deb topilgan arqoqli trikotaj to'qimalarini texnologik ko'rsatkichlariga va fizik-mexanik xossalariga arqoq ipini chiziqliy zichligini ta'sir bo'yicha bog'lanishlar ishlab chiqilgan;

ikki qavatli sifat ko'rsatkichlari yuqori deb topilgan arqoqli trikotaj to'qimalari tarkibidagi arqoq iplarini to'qimada mustahkam mahkamlanganlik darajasi maxsus moslamada aniqlangan;

ikki qavatli sifat ko'rsatkichlari yuqori deb topilgan arqoqli trikotaj to'qimalari tarkibidagi arqoq ipini to'qima asosida mustahkam mahkamlanganligiga ta'sir etuvchi omillarini qiymatlari aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

fizik-mexanik hossalari yuqori bo'lgan lastik asosida olingan ikki qavatli trikotaj to'qimalarini yangi tuzilishlari va ularni yassi ikki ignadonli trikotaj to'quv mashinasida olish usullari ishlab chiqilgan;

bir qator trikotaj ishlab chiqarish korxonalarida trikotaj matolari assortimentini kengaytirish, ulardan import o'rnini bosuvchi raqobatbardosh, sifatli trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarish maqsadida, yangi tuzilishga ega bo'lgan va ishlab chiqarish usuli takomillashtirilgan ikki qavatli arqoqli trikotaj to'qimalari yaratilgan va korxona sharoitida ishlab chiqarishga tadbiq etish uchun qabul qilingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot yakunida shakllantirilgan ilmiy holatlar, prinsiplar, xulosalar va tavsiyalar, nazariy va tajribaviy tadqiqotlarga, aprobat siya va qo'llash natijalarining ijobiyligiga, shuningdek, natijalarni solishtirish, baholash kriteriylariga ko'ra, ularning adekvatligiga, o'tkazilgan tadqiqotlarning ijobiy natijalari va ularning ko'rib chiqilayotgan fan sohasidagi ma'lumotlari bilan qiyosiy tahliliga ko'ra izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati xomashyo sarfi kam bo'lgan, yuqori sifatli yangi tuzilishli ikki qavatli arqoqli trikotaj to'qimalarining fizik-mexanik xususiyatlariga bog'liqligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati homashyo sarfi kam bo'lgan, yuqori sifatli ikki qavatli arqoqli trikotaj to'qimalarini yangi tuzilishi yaratilishida va olishda,

mashinaning texnologik imkoniyatlarini kengayishida, trikotaj to‘qimasi va mahsulot turlarini ko‘payishida hamda paxta va PAN iplarini qo‘llanish ko‘lamini kengayishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ikki ignadonli yassi fang trikotaj to‘quv mashinasida ikki qavatli arqoqli to‘qimalar olish texnologiyasini takomillashtirish bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar asosida: ikki qavatli arqoqli to‘qimalar olish texnologiyasini “O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasi tasarrufidagi “Riviera textile” MCHJ, «Mergancha textile-service» MCHJ, korxonalariga tadbiiq etilgan (“O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasining 2025-yil 21-iyuldagi № 02/25-1761 sonli ma’lumotnomasi). Natijada trikotaj mahsulotlari assortimentini kengaytirish, sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilash va xomashyo sarfini 22% gacha kamaytirishga erishilgan va mahalliy korxonalarda ichki va tashqi bozorga yo‘naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari bo‘yicha jami 10 ta ilmiy-texnik anjumanlarda, shu jumladan, 9 ta xalqaro va 1 ta Respublika ilmiy- anjumanlarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Tadqiqot natijalari bo‘yicha jami 12 ta ilmiy ishlar chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy amaliy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola nashr etilgan, shundan 3 ta maqola xorijiy 3 ta maqola mahalliy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish 4 ta bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 114 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi, zamonaviyligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari tavsiflangan, uning obekti, predmeti va usullari aniqlangan, O‘zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalari rivojining ustvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, dissertatsiya bo‘yicha xalqaro ilmiy tadqiqotlar sharxi, muammoning o‘rganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiti ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Ikki qavatli arqoqli trikotaj to‘qimalarini ishlab chiqarishni bugungi kun holatini tahlili”** deb nomlangan birinchi bobida adabiyot manbaalarining tahlili yoritilgan bo‘lib, unda to‘qimachilik sanoatining bugungi holati, trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarishda turli xil xomashyolardan samarali foydalanish, hamda ikki qavatli arqoqli trikotaj to‘qimalarini tuzilishi va olish usullari kabi masalalarga etibor qaratilgan. Olib borilgan adabiyotlar tahlili natijalari asosida trikotaj to‘quv mashinalarining texnologik imkoniyatlaridan foydalanib, ikki qavatli arqoqli trikotaj matolarining yangi tuzilishlarini olish texnologiyasini takomillashtirishni ishlab chiqish, uni ilmiy asoslash masalalari dissertatsiya ishining vazifasi etib belgilangan. Bajarilgan ilmiy tadqiqot ishlari; chop etilgan ilmiy maqolalar, patentlar va internet tarmoqlaridan olingan ma’lumotlar tahlilidan ma’lum

bo'ldiki, paxta va PAN iplarining chiziqliy zichliklarini o'zgartirish hamda to'qima tarkibida yangi turdagi to'qima tuzilishlarini yaratish, xomashyo sarfini kam talab qiladigan, yuqori sifat ko'rsatkichlariga ega bo'lgan ikki qavatli arqoqli trikotaj to'qimalarining yangi turlarini olish texnologiyasini takomillashtirish boyicha hamda to'qima tarkibida arqoq iplarini mahkamlanganlik darajasini aniqlashga bag'ishlangan ilmiy izlanishlar to'liq, yetarli darajada olib borilmaganligi dissertatsiya ishini maqsad va vazifalarini aniqlab berdi.

Dissertatsiyaning **“Ikki ignadonli yassi fang mashinasida yangi tuzilishli trikotaj to'qimalarini olish texnologiyasini takomillashtirish”** deb nomlangan ikkinchi bobida yassi ikki ignadonli “LX-252” rusumli trikotaj to'quv mashinasini texnologik imkoniyatlarini tahlili shuni ko'rsatdiki, mashinaning to'quv tizimini konstruksiyasiga hech qanday qo'shimcha o'zgartirishlar kiritmasdan, ikki qavatli arqoqli trikotaj matolarini olish imkoniyati borligi ma'lum bo'ldi. Olinishi rejalashtirilgan to'qimalarni to'qishda xomashyo sifatida chiziqliy zichligi 20 teks paxta va 20 teks PAN iplari tanlab olingan va bu iplarning xossalari tadqiq qilingan va olingan natijalar 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Xomashyolarning fizik-mexanik xususiyatlari


Ko'rsatkichlar	Poliakrilonitril (PAN) ipi 20 teks	Paxta ipi 20 teks
Haqiqiy buramlar soni: <i>(br/m)</i>	600	650
Buramlar soni bo'yicha variatsiya koeffitsiyenti: <i>(S,%)</i>	6	6
Buramlar koeffitsiyenti	6,80	7,20
Buram berilgan ipning chiziqli zichligi, <i>(teks)</i>	20	20
Haqiqiy uzulish kuchi: <i>(sN)</i>	217,5	231,3
Nisbiy uzulish kuchi: <i>(sN/teks)</i>	12,30	15,45
Uzilishdagi cho'zilish: <i>(E %)</i>	27,70	6,20
Ipining amaldagi namligi %	2	5,5

Ikki qavatli arqoqli trikotaj to'qima tarkibidagi arqoq iplarini chiziqliy zichliklarini o'zgarishi va to'qima tarkibiga press halqa elementlarini kiritilishi to'qimaning texnologik ko'rsatkichlariga, fizik-mexanik xususiyatlariga ta'sirini tahlil qilish va to'qima hamda matodan olinadigan maxsulot turlarini foydalanish ko'lamini kengaytirish maqsadida, hamda trikotaj to'quv mashinasining texnologik imkoniyatlaridan keng foydalanish hisobiga, ikki qavatli arqoqli trikotaj to'qimasining paxta va PAN iplaridan 18 xil variantlarini yangi tuzilishlari, grafikli yozuvlari yaratilgan, hamda ularni olish usullari ishlab chiqilgan.

Respublikamizda trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan trikotaj korxonalarida bir va ikki ignadonli trikotaj mashinalari o'rnatilgan. Bu mashinalar zamonaviy, yuqori ish unumdorligiga ega, kompyuterlashtirilgan, ammo ularning texnologik imkoniyatlari to'liq o'rganilmagan. Shuningdek, bu mashinalarda asosan paxta iplaridan foydalanadi.

Ikki qavatli arqoqli trikotaj to'qimasini eniga bo'lgan cho'zilishini kamaytirish maqsadida hamda arqoq iplarini lastik to'qimasini eniga cho'zilishiga ta'sir etishini aniqlash maqsadida ikki qavatli arqoqli trikotaj to'qimani 3 ta varianti to'qilgan va 1-rasmda bu to'qimaning I-1 variantini tuzilishi va grafikli yozuvlari keltirilgan.

I-1-Variant




1-rasm. Ikki qavatli arqoqli trikotaj to'qimasini tuzilishi (a) va grafikli yozuvi (b,c)

Yuqorida keltirilgan 1-rasmda ikki qavatli arqoqli trikotaj to'qimasini (b) grafikli yozuvidagi halqa qatorlari chiziqliy zichligi 20 teks 100% paxta ipidan olingan, to'qimani eniga cho'zilishini kamaytirish va iplarning chiziqliy zichliklarini to'qimaga ta'sirini tadqiqotlash maqsadida, to'qimani halqa qatorlarini hosil qilishda iplarning chiziqliy zichliklari o'zgartirilgan (c).

Ikki qavatli arqoqli trikotaj to'qimasini tarkibi turlicha bo'lgan paxta va PAN iplarini chiziqliy zichliklarini o'zgartirib to'qilganda, to'qimani eniga bo'lgan pishiqiligiga va xossalariga ta'sir etishini tadqiqotlash maqsadida ikki qavatli arqoqli trikotaj to'qimasini I-2 varyantini tuzilishi va olish usuli ishlab chiqilgan.

I-2-Variant




2-rasm. Ikki qavatli arqoqli trikotaj to'qimasini (a) va (b) grafikli yozuvi

2-rasmda to'qimaning (a) 100% paxta va (b) 100% PAN iplaridan to'qilgan namunalarini grafikli yozuvlari keltirilgan. 2-rasmda keltirilgan ikki qavatli arqoqli trikotaj to'qimalarini tuzilishi iplarni chiziqliy zichliklarini o'zgarganligi va tarkibi turlich bo'lgan iplardan to'qilganligi bilan farq qiladi hamda olingan bu to'qima namunalari bolalar, ayollar va erkaklarning yengil ustki va ustki trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarishda foydalanish uchun tavsiya etiladi. Ikki qavatli arqoqli trikotaj

to'qimalarini eniga cho'zilishini yanada kamaytirish maqsadida bu to'qimani I-3-variantini kamaytirish maqsadida bu to'qimani I-3- keltirilgan.


I-3-Variant



3-rasmda. Ikki qavatli arqoqli trikotaj to'qimasini (a) va (b) grafikli yozuvi

I-1 va I-2 rasmlarda keltirilgan to'qimalardan I-3-variant to'qimani farqi, arqoq iplarini chiziqliy zichliklari o'zgartirilganligida. Ikki qavatli arqoqli trikotaj to'qimalarini yuqorida keltirilgan variantlarida mashinada to'qib olingandan keyin arqoq iplari trikotajni ikki tomoniga yuza va ort tomonlariga halqalar orasidan chiqib qolish holati kuzatildi. Bunday holat trikotajni tashqi ko'rinishiga va sifatiga salbiy


II-1-Variant



4-rasmda. Ikki qavatli arqoqli trikotaj to'qimasining tuzilishi (a) va grafik yozuvlari (b) va (c)

ta'sir etishi ma'lum. Trikotajda hosil bo'lgan bu nuqsonlarni bartaraf etish uchun to'qima rapportiga press yarim halqalarini kiritish taklif etildi va ikki qavatli arqoqli trikotaj to'qimasini II-1-variantli tuzilishi va olish usuli yaratildi. 4-rasmda


II-2-Variant



5-rasm. Ikki qavatli arqoqli trikotaj toqimasining (a) va (b) grafikli yozuvlari

II-1-variantli to'qimani tuzilishi (a) va grafikli yozuvlari (b) va (c) keltirilgan. Bu to'qimalar bir-biridan to'qima tarkibidagi iplarni chiqiy zichliklarini o'zgartirilganligi bilan farq qiladi. II-1, II-2 va II-3 variantlarda press halqa qatorlarini to'qish taklif etilishi, arqoq iplarini to'qimani yuza va ort tomonga chiqib


II-3-Variant



6-rasm. Ikki qavatli arqoqli trikotaj to'qimasining (a) va (b) grafik yozuvlari


qolish nuqsonlari bartaraf etilishiga olib keldi. Ikki qavatli arqoqli trikotaj to'qimasini tarkibidagi arqoq iplarini to'qimani orqa tomoniga chiqib qolish holatini bartaraf etish maqsadida to'qimani orqa tomoniga ham press halqa qatorlarini kiritish taklif etildi va 7-rasmda press halqa qatorlarini to'qimani ikki tomonida hosil qilingan ikki qavatli arqoqli trikotaj to'qimasini umumiy ko'rinishi keltirilgan.

III-1-Variant




7-rasm. Ikki qavatli arqoqli trikotaj to'qimasining tuzilishi (a) va grafik yozuvlari (b) va (c)

III-2-Variant



8-rasm Ikki qavatli arqoqli trikotaj to'qimasining (a) va (b) grafik yozuvlari


III-3-Variant



9-rasm Ikki qavatli arqoqli trikotaj to‘qimasining (a) va (b) grafik yozuvlari

Trikotaj to‘qimalarini tarkibiga kiritilgan arqoq iplarini mahkamlanish darajasini aniqlash uchun prof. M.M Mukimov tomonidan taklif etilgan trikotaj tarkibidagi tuk va arqoq iplarini maxkamlanganligini aniqlovchi mahsus moslamadan (10-rasm) foydalanish, to‘qima tarkibida joylashtirilgan arqoq iplarini mahkamlanganlik darajasini aniqlash imkonini berdi, olingan natijalar 2-jadvalda keltirilgan. Ikki qavtli arqoqli trikotaj to‘qima variantlarini tarkibiagi arqoq iplarini mahkamlanganlik darajasini aniqlash bo‘yicha olingan. Ushbu tajribalar natijasida chiziqliy zichliklari turlicha bo‘lgan iplarni tortishdan olingan egri chiziqlar, 1-egri chiziq chiziqliy zichligi 20 teks x 1 paxta ipidan hosil qilingan arqoq ipini tortish uchun qo‘yilgan kuch qiymatini ko‘rsatadi (11-rasm).

-birinchi egri chiziqdan ko‘rinib turibdiki, kuchning qiymati pog‘onama-pog‘ona o‘sib boradi, egri chiziqning -birinchi qiymati dastlabki chiziqliy zichligi 20 teks x 1 paxta ipidan hosil qilingan arqoq ipni tortish uchun zarur bo‘lgan kuchning qiymati;



10-rasm. Tukli va arqoq iplarini trikotaj tarkibida mahkamlanganlik darajasini aniqlash moslamasi

-ikkinchi qiymati esa chiziqliy zichligi 20 teks x 2 paxta ipidan hosil qilingan arqoq ipini tortish uchun zarur bo'lgan kuchning qiymatidir (11-rasm). -uchinchi qiymati esa chiziqliy zichligi 20 teks x 3 paxta ipidan hosil qilingan arqoq ipini tortish uchun zarur bo'lgan kuchning qiymatidir;

-chiziqliy zichligi 20 teks x 1 PAN ipidan hosil qilingan arqoq ipni tortish uchun zarur bo'lgan kuchning birinchi qiymati;

-ikkinchi qiymati esa chiziqliy zichligi 20 teks x 2 PAN ipidan hosil qilingan arqoq ipini tortish uchun zarur bo'lgan kuchning qiymatidir (11-rasm).

-uchinchi qiymati esa chiziqliy zichligi 20 teks x 3 PAN ipidan hosil qilingan arqoq ipini tortish uchun zarur bo'lgan kuchning qiymatidir.

Yuqorida olib borilgan tadqiqotlarni tahlili shuni ko'rsatdiki, ikki qavatli

2-Jadval

Ikki qavatli arqoqli trikotaj trikotaj to'qima variantlarini tarkibiagi arqoq iplarini mahkamlanganlik darajasi ko'rsatkichlari

	I-1		I-2		I-3		II-1		II-2		II-3		III-1		III-2		III-3	
	Paxta	PAN	Paxta	PAN	Paxta	PAN	Paxta	PAN	Paxta	PAN	Paxta	PAN	Paxta	PAN	Paxta	PAN	Paxta	PAN
1	10	15	13	20	17	25	19	30	21	33	23	38	26	43	29	48	32	53
2	11	14	12	21	18	25	18	30	20	34	23	39	25	42	30	48	33	54
3	10	15	13	20	16	24	19	31	21	33	24	38	25	43	30	49	32	53
4	12	16	14	22	17	26	20	30	21	32	23	37	26	43	29	49	32	53
5	10	15	13	20	17	25	19	30	20	33	23	38	26	43	29	48	32	53
U	10,6	15	13	20,6	17	25	19	30,2	20,6	33	23,2	38	25,6	43	29,4	48	32,2	53,2


arqoqli trikotaj to'qimalari tarkibidagi arqoq iplarini to'qima tarkibida mahkam joylashishi arqoq iplarini chiziqliy zichligini son ko'rsatkichlariga bog'liqligi ma'lum bo'ldi. Ikki qavatli arqoqli trikotaj to'qima variantlarini tarkibiagi arqoq iplarini mahkamlanganlik darajasini aniqlash bo'yicha olib borilgan eksperimentlar natijalari (2-jadvalda) keltirilgan. Ikki qavatli arqoqli trikotaj to'qima variantlarini tarkibiagi arqoq iplarini mahkamlanganlik darajasi ko'rsatkichlari

Ushbu tajribalar natijasida chiziqliy zichliklari turlicha bo'lgan iplarni tortishdan olingan egri chiziqlar, 1-egri chiziq chiziqliy zichligi 20 teks x 1 paxta ipidan hosil qilingan arqoq ipini tortish uchun qo'yilgan kuch qiymatini ko'rsatadi (11-rasm).

-birinchi egri chiziqdan ko'rinib turibdiki, kuchning qiymati pog'onama-pog'ona o'sib boradi, egri chiziqning -birinchi qiymati dastlabki chiziqliy zichligi 20 teks x 1 paxta ipidan hosil qilingan arqoq ipni tortish uchun zarur bo'lgan kuchning qiymati, egri chiziqning;

-ikkinchi qiymati esa chiziqliy zichligi 20 teks x 2 paxta ipidan hosil qilingan arqoq ipini tortish uchun zarur bo'lgan kuchning qiymatidir (11-rasm). -uchinchi qiymati esa chiziqliy zichligi 20 teks x 3 paxta ipidan hosil qilingan arqoq ipini tortish uchun zarur bo'lgan kuchning qiymatidir;

-chiziqliy zichligi 20 teks x 1 PAN ipidan hosil qilingan arqoq ipni tortish uchun zarur bo'lgan kuchning birinchi qiymati;




11-rasm. Arqoq iplarini mustahkam mahkamlanish darajasini grafikli tahlili

-ikkinchi qiymati esa chiziqliy zichligi 20 teks x 2 PAN ipidan hosil qilingan arqoq ipini tortish uchun zarur bo'lgan kuchning qiymatidir (11-rasm).

-uchinchi qiymati esa chiziqliy zichligi 20 teks x 3 PAN ipidan hosil qilingan arqoq ipini tortish uchun zarur bo'lgan kuchning qiymatidir.

Yuqorida olib borilgan tadqiqotlarni tahlili shuni ko'rsatdiki, ikki qavatli arqoqli trikotaj to'qimalari tarkibidagi arqoq iplarini to'qima tarkibida mahkam joylashishi arqoq iplarini chiziqliy zichligini son ko'rsatkichlariga bog'liqligi ma'lum bo'ldi.

Dissertatsiyaning **Ikki qavatli arqoqli trikotaj to'qimasini hosil qilishda asos va arqoq ipini chiziqliy zichliklarini o'zgarish holatlarini nazariy tadqiq qilish** deb nomlangan uchinchi bobida I-1-2-3 variantlar ikki qavatli arqoqli trikotaj to'qimasini hosil qilishda asos halqasini va arqoq ipini chiziqliy zichliklarini o'zgarishi holatlari ko'rib chiqilgan. Ilmiy tadqiqot ishidan maqsad to'qimaning eniga bo'lgan cho'ziluvchanligini kamaytirish va sifat ko'rsatkichlari, fizik-mexanik xususiyatlari yuqori bo'lgan trikotaj to'qimalarini olish. Bu jarayonni aniqlash uchun turli xil usullarda nazariy tadqiqotlar olib borilgan. Birinchi navbatda asos halqalari, arqoq ipi bilan ikkita nuqtadagi ta'sirlarini (1) hisoblaymiz.



T_1, T_2 - taranglik kuchi;

N_1 -normal bosim kuchi;

$\beta, \beta_1, \varphi_1, \varphi_2$ - asos halqa va arqoq ipi kesishi ta'sirida hosil bo'lgan burchak;

F_{ish} – asos halqasi va arqoq ipi sirt yuzalarida hosil bo'ladigan ishqalanish kuchi;


I, II, III – arqoq ipining chiziqliy zichliklarini o'zgarish soni;

12-rasm. Asos halqa va arqoq iplari orasidagi ta'sir qiluvchi kuchlar tahlilini sxemasi

(12-rasm) da keltirilgan asos halqasini arqoq ipiga ta'sir natijasidagi kuchlar orqali ifodasini aniqlaymiz. Bitta kesimda to'qima arqoq ipini to'g'ri chiziqli holatda ushlab turishdagi holatini nazariy taxlil qilamiz. Bunda halqa iplarini arqoq ipiga ta'siri natijasidagi holatini ko'ramiz.


$$\sum F_{nx} = 0; \quad T_2 \cos \varphi_2 - T_1 \cos \varphi_1 - N_1 \cos \beta - F_{ish} \cos \beta_1 = 0 \quad (1)$$

$$\sum F_{ny} = 0; \quad -T_2 \sin \varphi_1 - T_2 \sin \varphi_2 + N_1 \sin \beta - F_{ish} \sin \beta_1 = 0$$



13-rasm. Asos ipi x 3 va arqoq x 1 iplarining T_1 uchun o'zaro ta'siri natijasidagi taranglik kuchlarini o'zgarish grafigi

(1) aniqlangan ifodalardan asos ipi x 3 va arqoq x 1 iplarining o'zaro ta'siri arqoq ipining taranglik kuchlarini Maple dasturidan foydalanib (13 va 14-rasmlarni) grafiklari



14-rasm. Asos ipi x 3 va arqoq x 1 iplarining T_2 uchun o'zaro ta'siri natijasidagi taranglik kuchlarini o'zgarish grafigi


Dissertatsiyaning «Ikki qavatli arqoqli trikotaj to'qimalarini texnologik ko'rsatkichlari va fizik-mexanik xususiyatlari tadqiqi» deb nomlangan to'rtinchi bobida yassi fang mashinasining texnologik imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida

2-jadval

**Paxta ipidan olingan ikki qavatli arqoqli trikotaj to'qimalarining
texnologik ko'rsatkichlari**


Variantlar		0	I			II			III		
Ko'rsatkichlar			1	2	3	1	2	3	1	2	3
Xomashyoturi, chiziqli zichligi va to'qima tarkibidagi miqdori, (%)	Paxta, asos halqa,	20 t x 1	20 t x 3								
		100	72,4	68,3	47,7	44,2	38	40	38	36	32,5
	Paxta, press halqa,		-	-	-	20 t x 3					
			-	-	-	41,3	38,2	34	53	52	52
	Paxta, arqoq ipi,		20 t x 1	20 t x 2	20 t x 3	20 t x 1	20 t x 2	20 t x 3	20 t x 1	20 t x 2	20 t x 3
		27,6	31,7	52,3	17,6	23,8	26	9	12	15,5	
Arqoq ipi uzunligi 50 mm da (mm)			90	85	92	65	68	63	71	68	73
Halqa qadami A, (mm)		1,43	1,49	1,55	1,68	1,45	1,65	1,69	1,48	1,57	1,68
Halqa qatori balandligi B, (mm)		0,83	0,9	0,86	0,83	1,25	1,3	1,4	2,5	2,7	2,9
Gorizontal bo'yicha zichlik P _g , (halqa)		33	36	38	39	35	37	40	35	38	39
Vertikal bo'yicha zichlik P _v , (halqa)		38	40	42	46	40	43	45	40	42	44
Halqa ipi uzunligi (mm)	La	5,39	5,41	5,31	5,27	5,40	5,39	5,37	6,19	6,40	6,52
	Lp	-	-	-	-	7,56	7,45	7,40	7,46	7,38	7,33
Trikotaj to'qimasi yuza zichligi M _s , (gr/m ²)		233	242,5	268,5	279,3	230,7	235,4	239,3	223,1	227,4	231,2
Trikotaj to'qimasi qalinligi T, (mm)		1,19	1,3	1,35	1,39	1,23	1,27	1,3	1,21	1,24	1,27
Hajm zichligi δ, (mg/sm ³)		195,7	186,5	198,8	200,9	187,5	185,3	184	184,3	183,3	182

mahalliy homashyo paxta ipidan foydalanib ikki qavatli arqoqli trikotaj to'qimasi olindi. Ikki qavatli arqoqli trikotaj to'qimasining fizik-mexanik va texnologik ko'rsatkichlari tadqiq qilindi. Trikotaj to'qimalarining texnologik ko'rsatkichlari (2-jadvalda) keltirilgan. Ushbu ilmiy tadqiqot ishida yuza zichligi M_s,



15-rasm. Trikotaj to'qimasining hajm zichligini o'zgarish gistogrammasi

hajm zichligi δ , trikotaj to'qimasi qalinligi T (mm) kabi eksperimental yo'l bilan aniqlangan texnologik ko'rsatkichlari o'zaro solishtirildi. Hajm zichligini grafik tahlili (15-rasmda) keltirilgan va bu tahlilda δ 0, I-1, I-2, I-3 variantda 186,5-200,9 (gr/sm³) ni, II-1, II-2, II-3 variantda 184-187,5 (gr/sm³) ni, III-1, III-2, III-3 variantda 182-184,3 (gr/sm³) ni tashkil qildi.



16-rasm. Trikotaj to'qimasining hajm zichligini o'zgarish gistogrammasi


Ikki qavatli arqoqli trikotaj to'qima namunalarini fizik-mexanik xossalari 100 % paxta xomashyosidan ishlab chiqarilgan. (mm) gacha oraliqda o'zgardi.

3-jadval

PAN ipidan to'qilgan ikki qavatli arqoqli trikotaj to'qimalarining texnologik ko'rsatkichlarini


Variantlar		0	I			II			III		
Ko'rsatkichlar			1	2	3	1	2	3	1	2	3
Xomashyoturi, chiziqli zichligi va to'qima tarkibidagi miqdori, (%)	PAN, asos halqa	20 t x 1	20 t x 3								
		100	79,8	78,5	70	50,9	46,7	40,2	45,1	45,6	41,2
	PAN, press halqa		20 t x 3								
			-	-	-	40,1	40,8	43,3	48,3	43,3	45
	PAN, arqoq ipi		20 t x 1	20 t x 2	20 t x 3	20 t x 1	20 t x 2	20 t x 3	20 t x 1	20 t x 2	20 t x 3
			20,2	21,5	30	9	12,5	16,5	6,6	11,1	13,8
Arqoq ipi uzunligi 50 mm da (mm)			90	85	92	65	68	63	71	68	73
Halqa qadami A, (mm)		1,43	1,45	1,50	1,63	1,40	1,60	1,64	1,43	1,52	1,65
Halqa qatori balandligi B, (mm)		0,84	0,90	0,81	0,77	1,20	1,25	1,35	2,0	2,2	2,4
Gorizontal bo'yicha zichlik P_g (halqa)		34	37	39	40	36	38	41	36	39	40
Vertikal bo'yicha zichlik P_v (halqa)		39	41	43	47	41	44	46	41	43	47
Halqa ipi uzunligi (mm)	L_a	5,20	5,26	5,22	5,35	5,34	5,32	6,14	6,35	6,47	6,37
	L_p	-	-	-	-	7,42	7,37	7,43	7,35	7,30	7,43
Trikotaj to'qimasi yuza zichligi M_s (gr/m ²)		232	239,5	260	276,3	227,7	236,4	245,3	220,1	230,2	247,4
Trikotaj to'qimasi qalinligi T, (mm)		1,18	1,28	1,37	1,42	1,26	1,28	1,30	1,23	1,25	1,30
Hajm zichligi δ , (mg/sm ³)		196,6	187,1	190,1	197,3	180,7	184,6	188,6	178,9	184,1	190,3

Hajm zichligi δ 0, I-1, I-2, I-3 variantda 187,1-197,3 (gr/sm³) ni, II-1, II-2, II-3 variantda 180,7-188,6 (gr/sm³) ni, III-1, III-2, III-3 variantda 178,9-186,1 (gr/sm³) ni tashkil qildi. Yassi fang mashinasida to‘qib olingan ikki qavatli arqoqli trikotaj to‘qimalari bir xil sharoitda olingan bo‘lib bu to‘qimalar bir birdan arqoq ipining chiziqliy zichligi o‘zgarib borishi bilan farq qiladi. Ishlab chiqarilgan yangi hususiyatli ikki qavatli arqoqli trikotaj to‘qimalarining fizik-mexanik xossalari TTYSI sinov laboratoriyasida mavjud zamonaviy asbob-uskunalarda sinovdan o‘tkazilgan va olingan natijalar (4-jadvalda) keltirilgan. Yangi hususiyatli ikki qavatli arqoqli trikotaj to‘qima namunalarini fizik-mexanik xossalari 100 % paxta ipidan ishlab chiqarilgan. Ikki qavatli arqoqli trikotaj to‘qimalarining havo o‘tkazuvchanlik xossalarini tadqiq qilish katta ahamiyatga ega. Ishlab chiqarilgan ikki qavatli arqoqli trikotaj to‘qima namunalarining havo o‘tkazuvchanlik qiymatlari cm³/cm²*sek birlikida 20⁰ C 1 atm bosimida “AP-360 SM” – rusumli asbobida aniqlandi.



17-rasm. Ikki qavatli arqoqli trikotaj to‘qimasining havo o‘tkazuvchanligini o‘zgarish gistogrammasi

Ikki qavatli arqoqli trikotaj to‘qimalarining havo o‘tkazuvchanligi 0, I-1, I-2, I-3 variantlarida 126,5 dan 285,6 sm³/sm²*sekgacha oraliqda, II-1, II-2, II-3 variantlarda 210,7 dan 260,7 sm³/sm²*sekgacha oraliqda, III-1, III-2, III-3 variantlarda 225,2 dan 277,1 sm³/sm²*sekgacha oraliqda o‘zgaradi. Ikki qavatli arqoqli trikotaj to‘qimasining havo o‘tkazuvchanligining eng past ko‘rsatkichi I-3



18-rasm. Ikki qavatli arqoqli trikotaj to‘qima namunalarining bo‘yiga va eniga uzilishtagi cho‘zilishini o‘zgarish gistogrammasi.

variant $126,5 \text{ sm}^3/\text{sm}^2 \cdot \text{sekund}$, eng yuqori ko'rsatkichni 0 variant $285,6 \text{ sm}^3/\text{sm}^2 \cdot \text{sek}$, qiymatni ko'rsatdi. Ikki qavatli arqoqli trikotaj to'qima namunalarining Uzilishdagi cho'zilish ko'rsatkichlari to'qima namunalarida 0, I-1, I-2, I-3 variantlarda bo'yiga 156,4 % dan 170 % gacha, eniga 85 % dan 254,4 % gacha oraliqda, II-1, II-2, II-3 variantlarda bo'yiga 113 % dan 136,5 % gacha, eniga 85 % dan 254,4 % gacha oraliqda, II-1, II-2, II-3 variantlarda bo'yiga 113 % dan 136,5 % gacha, eniga 123,6 % dan 179,5 % gacha oraliqda, III-1, III-2, III-3 variantlarda bo'yiga 108 % dan 134,3 % gacha, eniga 176,7 % dan 183,3 % gacha oraliqda o'zgarganini ko'rishimiz mumkin. Ikki qavatli arqoqli to'qimalarining uzilishdagi cho'zilish ko'rsatkichlari (GOST 28554-2022 I-0-40%, II-41-100%, III-100% dan yuqori) standart me'yorlariga to'g'ri keladi.

4-jadval

Paxta ipidan olingan Ikki qavatli arqoqli trikotaj to'qimalarining fizik-mexanik xossalarini tadqiqot natijalari

Variantlar		0	I			II			III			Standartlar bo'yicha
Ko'rsatkichlar			1	2	3	1	2	3	1	2	3	
Xomashyo turi chiziqli zichligi va to'qima tarkibidagi miqdori, (%)	Asos halqa	100		72,4	68,3	47,7	44,2	38	40	38	36	
